

# SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA MAS'ULIYAT MASALALARI

**Hamroyeva Parichehra Nizom qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti, 3-bosqich talabasi

parichehrahamroyeva468@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22886286>

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada sun'iy intellekt tushunchasining zamonaviy jamiyat hayotiga jadal kirib kelishi, uni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan mas'uliyat masalalari tahlil etiladi. Tadqiqotda sun'iy intellekt sohasida to'plangan ilmiy tajribalar va olimlar qarashlari umumlashtirilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining yuridik sohaga tatbiq etilishi, uning afzallik va kamchiliklari ochib berilgan. Maqolada xalqaro miqyosda sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish amaliyoti, mavjud muammolar hamda ularning ehtimoliy yechimlari ilmiy asosda yoritilgan. Natijada, sun'iy intellektni qo'llash jarayonida vujudga keladigan huquqiy kolliziyalarni bartaraf etish, shuningdek, mas'uliyatni adolatli taqsimlashga qaratilgan samaralii normativ-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish zarurligi ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, huquqiy tartibga solish, huquqiy javobgarlik, raqamli texnologiyalar, neyron tarmoqlar, kognitiv funksiyalar.

## I. Kirish

Bugungi kunda, hayotimizning barcha sohalariga kirib kelgan axborotkommunikatsiya texnologiyalari tizimini rivojlantirish, bu sohaga oid xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda ishtirok etish hamda mazkur sohani zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilishni taqozo etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, jamiyat faoliyatining keng sohalarida turli kompyuter texnologiyalar bilan ta'minlanadigan axborot xizmatlarining joriy qilinishiga olib keldi. Bu o'z navbatda yangi kiber huquq sohasining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

Umuman olganda, **kiber huquq sohasining kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo'ldi:**

- virtual huquqiy munosabatlar kelib chiqishi;
- AKTni rivojlanishi;
- axborot xavfsizligini ta'minlash zarurati;
- raqamli iqtisodiyotga mavjud ehtiyoj;
- Internetda intellektual mulk huquqini himoya qilish lozimligi.

Bunday yangi munosabatlarning paydo bo'lishi, ularni huquqiy tartibga solishni taqozo etdi. Shu bois, yangi kiber huquq tarmog'i vujudga keldi.

**Kiber huquq** – axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga hamda himoya qilishga qaratilgan huquq sohasidir<sup>1</sup>.

**Raqamli texnologiyalar** - bu butun iqtisodiyot va jamiyatning raqamli transformatsiyani ta'minlaydigan texnologiyalar bo'lib, ular axborot raqamlarga aylantirilgan formatda saqlash va uzatishga asoslangan. Shunaqa texnologiyalar rivojlanayotgan davrda eng dolzarb masalalardan biri bu sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishdir. McKinsey Global instituti prognozlariga ko'ra, sun'iy intellekt 2030-yilga borib taxminan 13 trillion AQSH dollari miqdoridagi qo'shimcha iqtisodiy mahsulot ishlab chiqarishi mumkin, bu esa global YaIMni har yili taxminan 1,2 foiziga oshirish hisobiga amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

**Sun'iy intellekt** - bu insonning kognitiv funktsiyalarini taqlid qilish (shu jumladan o'z-o'zini o'rganish va oldindan belgilangan algoritmsiz echimlarni topish) va hech bo'lmaganda inson intellektual faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan aniq vazifalarni bajarishda natijalarga erishish imkonini beruvchi texnologik echimlar to'plami. Texnologik yechimlar majmuasiga axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi (shu jumladan, axborot tizimlari, axborot va telekommunikatsiya

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 3 b.

<sup>2</sup> <https://kun.uz/uz/news/2022/09/08/suniy-intellekt-va-xavfsizlik-robotlarodamlar-ustidan-hukmronlik-qilishi-mumkinmi>

<sup>1</sup> Kiber huquq – huquq sohasi sifatida: risola / tuzuvchilar R.R.Shakurov, M.M.Vohidov. – Toshkent:

tarmoqlari, axborotni qayta ishlashning boshqa texnik vositalari), dasturiy ta'minot (shu jumladan, mashinani o'rganish usullaridan foydalanadiganlar), ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari va xizmatlari hamda yechimlarni izlash kiradi<sup>3</sup>.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt tarmoqlarining izchil rivoji jamiyatga bir qancha manfaatlar bilan birga, javobgarlik va mas'uliyat masalalarini ham keltirib chiqardi. Ushbu maqolada, sun'iy intellekt, sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy tartibga solinishi va mas'uliyat masalalari o'rganiladi va berilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda qonunchilikka takliflar beriladi.

## II. Metodologiya

Mazkur maqolada sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy tartibga solinishi, ularning qo'llanilishi bilan bog'liq mas'uliyat masalalari va mavjud qonunchilikdagi bo'shliqlar tahlil qilingan hamda muammolarga muqobil yechimlar taklif etilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, turli sohalarida, jumladan yuridik faoliyatda ham keng qo'llanilmoqda. Shu sababli, ularni huquqiy tartibga solish va mas'uliyatni aniqlash masalalari dolzarb bo'lib, yetarlicha qonunchilik asoslariga ega emas.

Ushbu maqolada taqqoslash va tahlil metodlaridan foydalanilgan. Ya'ni sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy tartibga solinishi bilan bog'liq masalalar, mas'uliyatni belgilash, xalqaro va xorijiy tajribalar, shuningdek mavjud normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganishning afzalligi shundaki, u orqali mavjud kamchiliklar aniqlanib, ularni O'zbekiston qonunchiligiga moslashtirish mumkin.

Bundan tashqari, maqolada ilmiy maqolalar, huquqiy tahlillar, normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy case'lar yig'ilgan va tahlil qilingan. Shu bilan birga, sun'iy intellektni tartibga solish jarayonidagi cheklovlar, qonunchilikdagi bo'shliqlar va amaliyotdagi muammolar ko'rsatilib, ularga yechimlar ham taklif etilgan. Maqola yakunida ushbu muammolarni bartaraf etish va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha qonunchilikka tavsiyalar berilgan.

## III. Natijalar

Sun'iy intellekt (AI) tizimlarining XXI asrga kelib jadal rivoji, hamda ularning jamiyatning deyarli barcha sohalariga keng joriy etilishi natijasida ushbu tizimlarni huquqiy tartibga solish hamda mas'uliyat masalalari zarurati tobora ortib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt sohasida xalqaro miqyosda yagona, umumqabul qilingan huquqiy mexanizm hali shakllanmagan bo'lsa-da, ayrim davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan muhim huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Misol tariqasida, 2019-yilda **Organisation for Economic Co-operation and Development** tomonidan qabul qilingan **"AI Principles"** sun'iy intellektni rivojlantirish va qo'llashda inson huquqlarini himoya qilish, shaffoflik, xavfsizlik va hisobdorlik kabi tamoyillarni asosiy mezon sifatida belgilab berdi. Ushbu tamoyillar sun'iy intellektni tartibga solishda global darajadagi muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -8 bet.

<sup>4</sup> <https://www.oecd.org/en/topics/ai-principles.html>

Shuningdek, **European Union** tomonidan ishlab chiqilgan **"AI Act"** loyihasi sun'iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga qarab tasniflash orqali ularni tartibga solishni nazarda tutadi. Mazkur hujjatga ko'ra, yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlariga nisbatan qat'iy talablar qo'yiladi, jumladan, shaffoflik, xavfsizlik va inson nazorati majburiy hisoblanadi. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellektni samarali tartibga solishning eng maqbul modellardan biri sifatida baholandi<sup>5</sup>.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq xavflar ham ortib bormoqda. Masalan, 2018-yilda *Amazon kompaniyasi* tomonidan ishlab chiqilgan ishga qabul qilish algoritmi ayollarga nisbatan diskriminatsiya qiluvchi qarorlar qabul qilgani aniqlangan. Ushbu tizim tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holda erkak nomzodlarga ustunlik bergan va natijada kompaniya ushbu tizimdan voz kechishga majbur bo'lgan<sup>6</sup>. Bu holat sun'iy intellekt tizimlarida algoritmik xatoliklar va "bias" muammosi real hayotda jiddiy oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt bilan bog'liq huquqiy mas'uliyat masalasi eng murakkab va bahsli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda aksariyat huquqiy tizimlarda javobgarlik quyidagi subyektlar o'rtasida taqsimlanadi: dasturchi, ishlab chiqaruvchi, operator va foydalanuvchi. Biroq sun'iy intellekt tizimlarining avtonomlik darajasi ortib borayotgani sababli, ushbu yondashuv yetarli emasligi aniqlangan. Masalan, 2018-yilda *Uber self-driving car* bilan bog'liq avtohalokatda piyoda halok bo'lgan. Tergov natijalariga ko'ra, hodisa sun'iy intellekt tizimining noto'g'ri qarori va inson nazoratining yetarli darajada amalga oshirilmaganligi bilan izohlangan. Ushbu holat sun'iy intellekt tizimlari bilan bog'liq javobgarlikni aniqlashda mavjud huquqiy mexanizmlar yetarli emasligini yana bir bor tasdiqlaydi<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellektni rivojlantirish va tartibga solish bo'yicha muayyan choralar ko'rilmogda. Jumladan, **O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va krypto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-3832-son qaror** (2018-yil), **Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4996-son qaror** (2021-yil) hamda **Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan**

<sup>5</sup> <https://artificialintelligenceact.eu/>

<sup>6</sup> [https://www.globalcitizen.org/en/content/amazon-ai-hiring-sexist/?gad\\_source=1&gad\\_campaignid=22819602432&gbraid=OAAAAACnN8MwfMXzAJWq8aYqLUukZkI46Y&gclid=Cj0KCQjwj47OBhCmARIsAF5wUEHwzDo15Jq88LBT5zHqp3FOwFfkiKiI5yek6zAw0FFYqGTCJIVd3zsaApYAEALw\\_wcB](https://www.globalcitizen.org/en/content/amazon-ai-hiring-sexist/?gad_source=1&gad_campaignid=22819602432&gbraid=OAAAAACnN8MwfMXzAJWq8aYqLUukZkI46Y&gclid=Cj0KCQjwj47OBhCmARIsAF5wUEHwzDo15Jq88LBT5zHqp3FOwFfkiKiI5yek6zAw0FFYqGTCJIVd3zsaApYAEALw_wcB)

<sup>7</sup> <https://edition.cnn.com/2023/07/29/business/uber-self-driving-car-death-guilty>

**munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida O'RQ-1115-son qonun** (2025-yil) sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu hujjatlar asosan texnologiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, mas'uliyatni aniq belgilash va huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish masalalari hali ham to'liq hal etilmagan. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt tizimlarini samarali huquqiy tartibga solish uchun kompleks yondashuv zarur. Bunda xalqaro tajribani hisobga olish, riskga asoslangan yondashuvni joriy etish, shaffoflikni ta'minlash va mas'uliyatni aniq belgilash asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi lozim. Aynan shu omillar sun'iy intellektdan xavfsiz va adolatli foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### IV. Muhokama

Sun'iy intellektning XXI asrga kelib har sohada jadal rivojlanib borishi jamiyatga ta'sir qilishni boshladi va shu bilan birga, aks ettirish va yechimlarni talab qiladigan axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Sun'iy intellekt rivojlanib borayotganini, uning hal qila oladigan masalalar doirasi doimiy ravishda kengayib borayotganini, ya'ni amaliyotda qo'llanilishi ortib borayotganini hisobga olib, sun'iy intellektning kiritilishi tufayli o'zgarib borayotgan munosabatlarni tartibga solish zarur. Qonun qonun normalari tomonidan sun'iy intellektdan foydalaniladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali sun'iy intellektga ta'sir o'tkazishga qodir. Sun'iy intellekt sohasida huquqiy tartibga solishni shakllantirish bo'yicha alohida takliflar 20-asrda ilgari surilgan. Bugungi kunda advokatlar va boshqa manfaatdor tomonlarning tegishli huquqiy tartibga solishni yaratish bo'yicha muhokamalari tez-tez sodir bo'lmoqda. Sun'iy intellektni tartibga solish zarurmi (aniqrog'i, u mavjud bo'lgan munosabatlar) haqidagi savolga ko'pincha ijobiy javob beriladi, lekin uni qanday qilib aniq tartibga solish kerakligi haqidagi savol ham bor, unga turli yo'llar bilan javob beriladi<sup>8</sup>. Sun'iy intellektni tartibga solish ma'lum bir yondashuv asosida shakllanadi. Ko'p sonli tarafdorlarga ega bo'lgan **ikkita asosiy yondashuv** mavjud:

➔ *huquqiy (rasmiy);*

➔ *texnologik.*

**Huquqiy yondashuv**, xuddi qonunning o'zi kabi, konservativ, **texnologik yondashuv** esa, texnologik rivojlanish kabi, aksincha.

*Birinchi yondashuv* tarafdorlari mavjud huquqiy tizimdan kelib chiqib, mavjud qoidalarini sun'iy intellektni tartibga solishda qo'llashga harakat qilishni va faqat kerak bo'lganda tartibga solishni yangi qoidalar bilan to'ldirishni taklif qilishadi. Yuridik yondashuvning afzalligi shundaki, sun'iy intellekt mavzusi qonunni yangi texnologiyalarga "moslashtirmoqchi" yuristlarning nuqtai nazariga to'ri keladi va kamchilik shundaki, advokatlar, qoida tariqasida, texnologiyani yaxshi bilmaydilar. va ko'pincha texnologik

echimlarning mohiyatini tushunmasdan, ba'zan yangi tartibga solish ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirmasdan munosabatlarni hal qilishga intiladi. Tartibga solishning oqibati (yumshoqroq yoki qattiqroq) texnologiyalarning keyingi rivojlanishi boliq bo'lgan ma'lum sohalarga investitsiyalarning kirib kelishi yoki chiqishidir.

*Ikkinchi yondashuv texnologik.* Uning tarafdorlari texnologik mahsulotlarning har bir guruhini alohida tartibga solishni taklif qilmoqdalar: uchuvchisiz transport vositalari, shaxsiy xizmat robotlari, sanoat robotlari va boshqalar. Tartibga solish, ularning fikricha, tegishli texnologiyalarning rivojlanish darajasiga boliq bo'lishi va innovatsiyalarga to'sqinlik qilmasligi kerak. Ushbu yondashuvning afzalliklari "ko'r zonalar" ning yo'qligi, chunki innovatsiyalar paydo bo'lishi bilan tartibga solish shakllanadi va individual masalalarni tartibga solish batafsil tavsiflanadi va kamchiliklar - izchillikning past darajasi (birinchi yondashuvga qaraganda) va tezkorlik. tartibga solishning eskirganligi, masalan, texnologiyalar rivojlanayotganda texnologik yaqinlashuv - bu turli yo'nalishdagi mahsulotlarning kombinatsiyasi (va texnologik yondashuv tor yo'naltirilgan tartibga solishni nazarda tutadi)<sup>9</sup>.

Keling endi sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha xalqaro tajribalardan misollar ko'rib o'tsak.

2020 yil boshiga qadar sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyalar dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlarida qabul qilingan: Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Kanada, Isroil, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqalar. Strategiyalarni ishlab chiqish jarayoniga tobora ko'proq davlatlar kiritilmoqda.

2020 yildan boshlab har bir askar va har bir yangi davlat amaldori tegishli ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

**Janubiy Koreyada** boshlanich va o'rta maktablarda sun'iy intellekt sohasidagi ta'lim majburiy bo'ladi. 2030 yilgacha 2000 ta "aqlli" zavod yaratish rejalashtirilgan. 2017 yilda Yaponiya hukumati tomonidan tashkil etilgan Sun'iy intellekt texnologiyasi strategiyasi kengashi o'zining "Sun'iy intellekt texnologiyalari strategiyasini" ishlab chiqdi<sup>10</sup>. Unda asosiy e'tibor sun'iy intellektni rivojlantirishga ko'maklashish, ushbu sohada muhim bosqichlar va ustuvorliklarni belgilashga qaratilgan. 2019-yil mart oyida Yaponiya hukumati sun'iy intellektning insonga yo'naltirilgan ijtimoiy tamoyillarini tasdiqladi va iyun oyida yangilangan AI strategiyasi 2019 (AI Strategy 2019. AI for Everyone: People, Industries, Regions and

<sup>9</sup> Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish:

ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O.

Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov -

Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -73 bet.

<sup>8</sup> Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -53 bet.

<sup>10</sup> Sun'iy intellekt texnologiyasi strategiyasi (AI texnologiyasi bo'yicha strategik kengash hisoboti), 2017. URL:

<https://www.nedo.go.jp/content/100865202.pdf> (kirish 10.12.2021).

Governments) paydo bo'ldi<sup>11</sup>. Bu Yaponiya sanoatining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha dasturlar majmuasini amalga oshirishni nazarda tutadi.

2019 yilning kuzida **Singapur** ham sun'iy intellekt sohasida global yetakchilikka erishish strategiyasini e'lon qildi. Strategiya 2030 yilgacha mo'ljallangan va beshta asosiy yo'nalishga qaratilgan:

- transport va logistika;
- kommunal xizmatlar;
- surunkali kasalliklarni aniqlash va davolash;
- individual tayyorgarlik;
- chegara nazorati.

2025-yilga kelib Singapurda immigratsiya nazoratini to'liq avtomatlashtirish ko'zda tutilgan va sun'iy intellekt tizimlari uchun sensorlardan davlat infratuzilmasini profilaktik xizmat ko'rsatishda keng foydalanish rejalashtirilgan. Talabalar uchun ingliz tilidan avtomatlashtirilgan imtihonlarni 2022 yildan, boshqa fanlardan 2030 yildan boshlab joriy etish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, ilmiy, ishlab chiqarish va hukumat sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish uchun Sun'iy intellekt bo'yicha Milliy idora tashkil etilgan<sup>12</sup>.

Sun'iy intellektning rivojlanishi shiddat bilan davom etar ekan, huquqiy tizimlarning bu texnologiyaga moslashishi qiyin kechmoqda. An'anaviy huquqiy tamoyillar va mas'uliyatni taqsimlash yondashuvlari sun'iy intellekt bilan bog'liq muammolarni samarali hal eta olmayapti. Xususan, sun'iy intellekt tizimlari mustaqil ravishda qaror qabul qiladigan holatlarda aniq javobgar shaxs yoki tashkilotni aniqlash qiyin. Bu vaziyat quyidagi savollarni keltirib chiqaradi:

- Agar sun'iy intellekt ishlatish jarayonida zarar etkazilsa, mas'uliyatni kim o'z zimmasiga oladi?
- Huquqiy javobgarlikni taqsimlash bo'yicha qanday tamoyillarni qo'llash kerak?
- Hukumat va xalqaro tashkilotlarning bu boradagi roli qanday bo'lishi lozim?

Misol uchun, inson aralashuvsiz harakatlanadigan avtomobillar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari, tibbiy sun'iy intellekt vositalarining noto'g'ri ishlashi yoki chatbotlar orqali tarqalgan noto'g'ri ma'lumotlar jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu holatlar huquqiy mas'uliyatni kim ko'tarishi kerakligini aniqlashni talab qiladi: *ishlab chiquvchilar, foydalanuvchilar yoki hukumat organlari*.

Hozirgi kunda sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha xalqaro darajada to'liq huquqiy hujjatlar qabul qilinmagan bo'lsa-da, ayrim mintaqalar va tashkilotlar ushbu sohada tartibga solish va qoidalarni ishlab chiqishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. 2021-yil aprel oyida Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan taklif qilingan va 2024-yil mart oyida qabul qilingan Yevropa Ittifoqining Sun'iy Intellekt to'g'risidagi qonuni tarixiy ahamiyatga ega. Qonun sog'liqni saqlash,

transport, ishlab chiqarish va barqaror energiya kabi sohalarda zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish va qo'llash uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi. U sun'iy intellekt texnologiyalarini xavf darajasiga qarab boshqarishni, xavfsizlik, shaffoflik va inson huquqlariga rioya qilishni ta'minlash bilan birga Yevropa Ittifoqida innovatsiyalarni rag'batlantirishni maqsad qilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar tashlangan. Misol uchun, yuqoridagi keltirilganidek *PQ 3832, PQ 4996, VMQ 475, O'RQ 1115* kabi sun'iy intellektni qo'llash bo'yicha qonunchilikni rivoji O'zbekistonda sun'iy intellekt taraqqiyoti uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo, hali hamon sun'iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda jinoyat sodir etilganlik uchun javobgarlik hamda mas'uliyat masalalari mavhumligicha qolmoqda. Shu sababli, bugungi kunda, mas'uliyat hamda javobgarlik masalalari O'zbekistonda foydalanuvchi, ya'ni sun'iy intellektdan foydalanganlar, unga ma'lum bir vazifani bajarishi uchun buyruq berganlar o'rtasida an'anaviy qonunchilik bo'yicha taqsimlanishi belgilangan. Misol uchun, **O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 999-moddasida** tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug'diradigan faoliyat yetkazilgan zarar uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, bunda ham sun'iy intellekt tizimidan foydalanib zarar yetkazilgan hollarda foydalanuvchilar javobgarlikka tortilishlari mumkin. Bundan tashqari, bugungi kunda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda eng ko'p sodir etilayotgan jinoyatlardan biri bu shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini buzishga qaratilgan. Mazkur jinoyatga javobgarlikni **O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46 prim 2-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilsak bo'ladi.

## V. Xulosa

Ushbu maqolada sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy tartibga solinishi, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rni, qo'llanilish sohalari hamda ular bilan bog'liq mas'uliyat masalalari har tomonlama tahlil qilindi. Maqolada ta'kidlab o'tilganidek, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning turli sohalarga keng joriy etilishi huquqiy tartibga solish masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt tizimlari inson faoliyatining muhim qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojning ortishi, katta hajmdagi ma'lumotlarning qayta ishlanishi va qaror qabul qilish jarayonlarining avtomatlashtirilishi natijasida sun'iy intellektdan foydalanish kengayib bormoqda. Biroq aynan shu omillar sun'iy intellekt bilan bog'liq huquqiy xavflarni ham kuchaytirmoqda. Xususan, noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi, algoritmik xatoliklar, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi bilan bog'liq muammolar hamda inson huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli mavjud.

<sup>11</sup> AI strategiyasi 2019. Hamma uchun AI: Odamlar, sanoat, hududlar va hukumatlar, 2019. URL: <https://www8.cao.go.jp/cstp/english/humancentricai.pdf> (12/10/2021 dan foydalanilgan).

<sup>12</sup> Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -73 bet.

O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha muayyan normativ-huquqiy asoslar yaratilayotgan bo'lsa-da, ushbu sohada hali ham qator bo'shliqlar mavjud. Xususan, sun'iy intellektning huquqiy maqomini aniqlash, uning faoliyati natijasida yuzaga keladigan zararlarni uchun aniq javobgarlik mexanizmlarini belgilash hamda ushbu texnologiyalarni nazorat qilishning samarali usullarini ishlab chiqish zarur.

Shu munosabat bilan, sun'iy intellekt tizimlarini huquqiy tartibga solish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- sun'iy intellektning huquqiy maqomini aniq belgilovchi maxsus normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;
- sun'iy intellekt faoliyati bilan bog'liq javobgarlikni aniq taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlari uchun alohida nazorat va sertifikatlash tartiblarini joriy etish;
- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va algoritmik shaffoflikni ta'minlash bo'yicha qat'iy talablar belgilash;
- xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka moslashtirish.

**Xulosa qilib aytganda,** sun'iy intellekt tizimlarini samarali huquqiy tartibga solish nafaqat texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, balki inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi. Shu sababli, ushbu sohada kompleks yondashuvni joriy etish, mavjud qonunchilikni takomillashtirish va yangi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zamon talabi hisoblanadi. Aynan shunday yondashuv sun'iy intellektdan xavfsiz, adolatli va samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kiber huquq – huquq sohasi sifatida: risola / tuzuvchilar R.R.Shakurov, M.M.Vohidov. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 3 b.
2. <https://kun.uz/uz/news/2022/09/08/suniy-intellekt-va-xavfsizlik-robotlarodamlar-ustidan-hukmronlik-qilishi-mumkinmi>
3. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -8 bet.
4. <https://www.oecd.org/en/topics/ai-principles.html>
5. <https://artificialintelligenceact.eu/>
6. [https://www.globalcitizen.org/en/content/amazon-ai-hiring-sexist/?gad\\_source=1&gad\\_campaignid=22819602432&gbraid=0AAAAACnN8MwfMXzAJWq8aYqLUukZkI46Y&gclid=Cj0KCQjwj470BhCmARIsAF5wUEHwzDo15Jq88LBT5zHqp3FOWfFkiKi5yek6zAw0FFYqGTcJIVd3zsaApYAEALw\\_wcB](https://www.globalcitizen.org/en/content/amazon-ai-hiring-sexist/?gad_source=1&gad_campaignid=22819602432&gbraid=0AAAAACnN8MwfMXzAJWq8aYqLUukZkI46Y&gclid=Cj0KCQjwj470BhCmARIsAF5wUEHwzDo15Jq88LBT5zHqp3FOWfFkiKi5yek6zAw0FFYqGTcJIVd3zsaApYAEALw_wcB)
7. <https://edition.cnn.com/2023/07/29/business/uber-self-driving-car-death-guilty>
8. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir

A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -53 bet.

9. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -73 bet.

10. Sun'iy intellekt texnologiyasi strategiyasi (AI texnologiyasi bo'yicha strategik kengash hisoboti), 2017. URL: <https://www.nedo.go.jp/content/100865202.pdf> (kirish 10.12.2021).

11. AI strategiyasi 2019. Hamma uchun AI: Odamlar, sanoat, hududlar va hukumatlar, 2019. URL: <https://www8.cao.go.jp/cstp/english/humancentricai.pdf> (12/10/2021 dan foydalanilgan).

12. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -73 bet.